

KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI O'QUVCHILARNI O'QISHGA O'RGATISHDA PSIXOLOGIK XIZMATNING O'RNI

Fazliddinova Umida

Termiz davlat pedagogik instituti talabasi

Ilmiy raxbar: **O.Eshmuradov.**

Mamlakatimizdagi mavjud barcha umumiy o'rta talim maktablari ta'lim-tarbiyani to'g'ri tashkil etish uchun bu jarayonning o'ziga xos psixologik qonuniyatlarini, uning mexanizmlarini, shuningdek, ijodiy tafakkur jarayonini zamonaviy bilimlar asosida tarkib toptirishning samarali usullarini bilishlari zarur. Ma'lumki, har tomonlama yetuk barkamol avlodni tarbiyalash, ularga ta'lim berish ishlarini o'qituvchilar tomonida amalga oshiriladi. Bo'lajak o'qituvchilar o'quv faoliyatini tashkil etishda o'quvchilardagi har bir yosh davrining psixologik xususiyatlarini chuqur o'rganib, bu bilimlarni kelgusi pedagogik faoliyatlarida qo'llashlarida katta yordam beradi.

Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning muhim xususiyatlaridan biri ulardagi o'qituvchiga ishonch hissi bo'lib, bunda o'qituvchining o'quvchiga ta'sir ko'rsatish imkoniyati juda kattadir. Bola o'qituvchini aql sohibi, ziyrak, sezgir, mehribon inson deb biladi. O'qituvchining obro'si oldida ota-onalar, oilaning boshqa a'zolari, qarindosh urug'larining nufuzi keskin kamayadi. Shu sababli, bolalar o'qituvchining har bir so'zini qonun sifatida qabul qiladilar. Demak, kichik maktab yoshidagi o'quvchilar rivojida yetakchi bo'lgan o'quv faoliyati o'qituvchi shaxsi va o'quvchi bilan munosabat uslubining ahamiyati juda kattadir.

Kichik maktab yosh davrida bolaning atrofdagi insonlar bilan munosabatlarida katta o'zgarishlar ro'y berib, bolaning muloqoti endi aniq maqsadga qaratilgan bo'ladi. Buning asosiy sababi, bir tomondan o'qituvchining doimiy ravishda unga ko'rsatadigan psixologik ta'siri bo'lsa, ikkinchi tomondan o'quv jamoasining ijtimoiy ta'siridir.

O'quvchilarning kattalar va tengdoshlari bilan qiladigan muomalamunosabatlari yangicha tus ola boshlaydi. "Bola-katta" munosabati "bola-ota-ona" munosabatidan tashqarida yuzaga keladi. Chunki, o'qituvchi bolaga ota-onaga nisbatan ko'proq ravishda normativ talablar qo'yadi. Atrofdagilar bilan munosabatda esa bola o'z "Men"ini namoyon etishga harakat qiladi. L.S. Vigoskiyning ta'kidlashicha, faqat jamoaviy hayot ichida va ijtimoiy munosabatlar ta'sirida bolaning individual xulq-atvori shakllanadi. Faqat o'qituvchigina o'quvchisiga turli qat'iy talablar qo'yib, ularning xatti-harakatlarini baholay olib, uning ijtimoiylashuviga sharoit yaratib bera oladi. O'quvchining faolligiga o'qituvchining munosabat uslubi bevosita ta'sir ko'rsatadi. Kichik maktab

yoshidagi o'quvchi faolligining asosan uch xil ko'rinishi mavjud bo'lib, bular: jismoniy, psixik va ijtimoiy faollikdir.

Endigina maktabga qadam qo'ygan bola hali o'zini to'liq anglashi va o'z xatti-harakatlarini aniq bilishi qiyin. Bunday paytda faqat o'qituvchigina bolaga me'yorlar qo'yishi, ularning xatti-harakatlarini baholashi, o'z xatti-harakatlarini boshqalar bilan moslashtirishga sharoit yaratib bera olishi mumkin. O'quvchi uchun o'qituvchi uning psixologik holatini belgilab beruvchi asosiy yo'naltiruvchi hisoblanib, bu holat uning nafaqat sinfdagi, balki, umuman tengdoshlari bilan bo'ladigan munosabatiga samarali ta'sir ko'rsatadi. Shuningdek, bu munosabatlar uning o'quv faoliyati muvaffaqiyatini ham belgilab bera oladi. O'qituvchining o'quvchilarga ta'sir ko'rsatishi va munosabatining quyidagiusublari mavjud.

Avtoritar uslub: bu qattiqqo'llik bo'lib, bunda o'qituvchi o'quvchilarini so'zsiz o'ziga bo'ysunishlarini talab etadi. Lekin, nima uchun qattiqqo'lliq qilayotganini yoki o'quvchilariga nima uchun o'zlarini shunday tutishlari lozimligini tushuntirib bermaydi, shuningdek, o'quvchilarni o'z xatti-harakatlarini mustaqil boshqarishga ham o'rgatmaydi, o'qituvchi dars davomida o'quvchilaridan jim o'tirishini, savollarga doimo qo'l ko'tarib, o'qituvchining ruxsati bilan javob berishini, o'qituvchining ko'rsatmalarini so'zsiz bajarishini talab etadi. Bunday pedagoglar o'quvchilarning qiziqishlari asosida emas, balki asosan o'quv rejasi asosida dars o'tadilar. Dars o'tish jarayonida bahs-munozara uchun imkoniyat yaratilmagan holda asosan o'qituvchining fikri inobatga olinadi. Bu uslub sinfda yuqori o'zlashtirish ko'rsatkichini berishi, lekin bu o'zlashtirish, asosan, xotira sababli bo'lib, lekin mustaqil tafakkur, ijodkorlik, hozirjavoblik kabi xususiyatlarni rivojlanishdan ortda qolishiga sabab bo'lib, unda doimiy xavotirlik o'ziga nisbatan ishonchsizlikni keltirib chiqarishi mumkin.

Demokratik uslub o'qituvchi bilan o'quvchi o'rtasida do'stona munosabat o'rnatilishiga asos bo'ladi. Darsdagi intizom majburiy emas, balki muvaffaqiyatga erishish garovi sifatida bolalar ijobiy emotsiyani, o'ziga ishonch, o'z muvaffaqiyati, yutuqlaridan quvonishi, do'stlari bilan faoliyatda hamkorlik hissini beradi. Demokratik uslub bolalarni birlashtiradi. Shu bilan birga o'zining faoliyati natijalariga qiziqish uyg'otgan holda, o'zi uchun o'zi harakat qilishi lozimligini anglatadi, o'zini-o'zi boshqarishga, o'z xatti-harakatini o'zi nazorat qilishga o'rgatadi. Har bir ishga mas'uliyat bilan yondoshish hissi o'qituvchining shu yoshdagi bolalar bilan demokratik muomala munosabati asosidagina shakllanadi.

Liberal uslub kasbiy layoqati yo'q bo'lgan o'qituvchilarga xos bo'lgan uslubdir. Bunday o'qituvchi dars jarayonini yaxshi tashkil eta olmaydi. Bunday darslarda har bir bola o'z tarbiyalanganlik darajasiga qarab o'zini tutadi. Bola o'z majburiyatlarini yaxshi his qilmaydi. Muomala munosabatdagi liberal uslub

psixologiya va pedagogika fanlariga mutlaqo zid uslub hisoblanib, bolalar shaxsini shakllantirish va tarbiyalash jarayonida bu usulni qo'llab bo'lmaydi. Shunday qilib, boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan muomala-munosabatdagi imperativ uslub, asosan, ma'lum bir chegaralarga asoslangan holda bola shaxsi rivojiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Demokratik uslub o'qituvchidan muomala-munosabatda juda katta kasbiy mahoratni talab etgan holda, bola shaxsining ijobiy tomonlarini rivojlantiruvchi yagona uslub hisoblanadi. Liberal uslub esa o'quvchini emotsional zo'riqtirmaydi, lekin uning shaxsi rivojiga ham samarali ta'sir ko'rsatmaydi.

Boshlang'ich maktabda bolalar yangi talablarni qabul qiladilar va ularga qat'iyatlilik bilan amal qilishga harakat qiladilar. Bola uchun o'qituvchi uning psixologik holatini belgilab beruvchi asosiy figura hisoblanadi. Chunki uning bolaga bo'lgan munosabati uning nafaqat sinfdagi, balki, umuman tengdoshlari bilan bo'ladigan munosabatiga, bu munosabat esa o'z-o'zidan oilasidagi munosabatlariga ham bevosita ta'sirini ko'rsatadi. Shuningdek, bu munosabatlar uning o'quv faoliyati muvaffaqiyatini ham belgilab beradi.

O'qituvchining bolaga munosabati uning o'rtoqlari va oilasi bilan bo'lgan munosabatiga ham bevosita o'z ta'sirini ko'rsatadi. Shuni ham aloxida ta'kidlab o'tish kerakki, yangi muloqotning xarakteri kichik maktab yoshidagi o'quvchi ta'limining motivlariga, undagi axloqiy sifatlarning rivojlanishiga, o'z-o'ziga beriladigan bahoning shakllanishiga hamda bolaning qiziqishlari darajasiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Bolalarning o'quv faoliyati muvaffaqiyati hamda shaxsining shakllanishi ko'p jihatdan ularning o'qituvchisi bilan munosabatlaridagi o'ziga xos xususiyatlariga, sinfdagi o'z mavqeini qay darajada anglab yetishiga, tarkib topgan o'quvchilar jamosi bilan o'zaro munosabatlariga bog'liq bo'ladi. Biz sanab o'tgan boshqaruv uslublarini doim birdek qo'llay olmaymiz chunki ob'yektiv va subektiv sabalar to'sqinlik qilish mumkin.

Shuning uchun vaziyat va sharoitni hisobga olib dars jarayonida o'qituvchi shu 3 ta uslubni ham joyida qo'llay olishi zarur. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning bilimlarni o'zlashtirishi, maktabga moslashishi, individual psixologik xususiyatlarining tarkib topishi, shaxs sifatida shakllanishi va jamiyatda o'zining o'rnini to'g'ri belgilashda, boshlang'ich sinf o'qituvchisining mazkur uchta uslubni to'g'ri va oqilona qo'llay olishiga bog'liq bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Eshmurodov, O., & Eshboyeva, B. (2023). O'SMIRLIK DAVRIDA JINSIY STEROTIPLARNING YOSH XUSUSIYATLARI. Журнал Педагогика и психологии в современном образовании, 3(2). извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/8388>

2. Elamanovich, O. E. (2022, October). OILAVIY MUNOSABATLARDAGI NIZOLARNING KELIB CHIQISH SABABLARI. In Archive of Conferences (pp. 1-7).
3. Elomonovich, E. O. (2022). OILA PSIXOLOGIYASINING NAZARIY ASOSLARI, OILAVIY MUNOSABATLAR PSIXOLOGIYASI. *Gospodarka i Innovacje.*, 20, 49-51.
4. Eshmuradov Olmosbek Elamanovich (2021). OILA BARQARORLIGINI SHAKLLANTIRISH OMILLARI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1 (4), 1318-1323.
5. М. А. Тилакова, & О. Э. Эшмуратов (2021). КРЕАТИВ КОБИЛИЯТЛАРНИ РИВОЖЛАНТИРИШ МЕХАНИЗМЛАРИ. *Scientific progress*, 1 (6), 143-149.
6. Eshmurodov, O. (2023). SOG'LOM PSIXOLOGIK MUHIT OILA BARQARORLIGINING OMILI SIFATIDA . *Журнал Педагогика и психологии в современном образовании*, (I). извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/9088>
7. Eshmurodov, O. (2023). ҚИЗЛАРНИ ОИЛАВИЙ ҲАЁТГА ТАЙЁРЛАШНИНГ ИЖТИМОЙ ПСИХОЛОГИК ЖИХАТЛАРИ. *Журнал Педагогика и психологии в современном образовании*, (I). извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/9087>
8. Eshmurodov O. E. SOCIAL-PSYCHOLOGICAL FACTORS OF MAINTAINING FAMILY-MARRIAGE RELATIONS //Galaxy International Interdisciplinary Research Journal. – 2022. – Т. 10. – №. 12. – С. 803-807.
9. Эшмуратов О. Э. ОИЛАВИЙ МУНОСАБАТЛАРДА ШАХС МОСЛАШУВЧАНЛИГИ ХУСУСИЯТИНИНГ ОИЛА МУСТАҲКАМЛИГИГА ТАЪСИРИ: DOI: <https://doi.org/10.53885/edinres.2021.21.57.012> Эшмуратов Олмосбек Эламонович, Термиз давлат университетининг Педагогика институти Психология кафедраси катта ўқитувчиси //Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал. – 2021. – №. 1-Махсус сон. – С. 377-380.
10. Eshmurodov, Olmosbek. "ОИЛА МУСТАҲКАМЛИГИНИ ТАЪМИНЛАШНИНГ ИЖТИМОЙ-ПСИХОЛОГИК ОМИЛЛАРИ." *Scienceweb academic papers collection* (2022).
11. Эшмуратов О. Э. Оиланинг маънавий-ахлоқий хусусиятлари ва оила мустаҳкамлигини таъминлаш имкониятлари //Academic research in educational sciences. – 2021. – Т. 2. – №. 5. – С. 1082-1085.
12. Эшмуратов, О. Э. "Оилавий муҳит ва оилавий муносабатлар психологиянинг ўрганиш предмети сифатида." *ЎзМУ хабарлари*” *Мирзо Улугбек номидаги Ўзбекистон миллий университети илмий журнали* (2019): 162-164
13. Eshmurodov O. ОИЛА МУСТАҲКАМЛИГИНИ ТАЪМИНЛАШНИНГ ИЖТИМОЙ-ПСИХОЛОГИК ОМИЛЛАРИ //Scienceweb academic papers collection. – 2022.

14.Eshmurodov, O. (2024). ТАЪЛИМ ТАШКИЛОТЛАРИДА ПСИХОЛОГИК ХИЗМАТНИНГ ЙЎНАЛИШЛАРИ ВА ДОЛЗАРБЛИГИ. *Журнал Педагогики и психологии в современном образовании*, 148-151. извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/9838>

15.Eshmurodov, O., & O'roqova, L. (2024). МАКТАБЛАРДА PSIXOLOGIK ХИЗМАТНИ RIVOJLANTIRISH MASALALARI. *Журнал Педагогики и психологии в современном образовании*, 152-155. извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/9839>

